



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 13-iyul, № 141 (8764)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



FARG'ONA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA USTUVOR VAZIFALAR BELGILAB BERILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aholi hayoti, hududlar rivoji bilan yaqindan tanishish maqsadida 11-12-iyul kunlari Farg'ona viloyatida bo'ldi.



Tashrifning ikkinchi kuni Quva tumanida Farg'ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'sib borayotgan aholi talabini ta'minlash uchun iqtisodiyotni izchil rivojlantirish zarurligini ta'kidladi.

– Farg'ona katta viloyat. Hozirgi kunda aholi 4 milliondan oshdi. Bunday o'sish bilan 2030-yilga borib 5 millionga yetadi. Bu aytishga oson. Lekin ushbu raqam ortida qancha mas'uliyat va javobgarlik bor. Har yili yangi bog'cha va maktablar, uylar qurish, yuz minglab ish o'rinlari yaratish zarur. Shuning uchun hozirgi tahlil zamonda qanday qilib iqtisodiyotimizni barqaror qilamiz degan savol hammamizni qiynashi kerak, – dedi Prezident.

So'nggi yetti yilda viloyatda katta o'zgarishlar bo'ldi. Yo'l, suv, yer, uy-joy, ta'lim va tibbiyot infratuzilmasi yaxshilandi. Kiritilgan investitsiyalar hajmi 3 karra o'sdi. Tovar aylanmasi

10 million dollardan oshgan 122 ta korxonada paydo bo'ldi.

Eksport ham oshyapti. Bu ko'rsatkich o'tgan yili 722 million dollarni tashkil etdi. Farg'onalik korxonalar 60 ta yangi bozorga kirib bordi.

Lekin 19 ta korxonada quvvatlar pasaygan. 3 ta loyihani ishga tushirish kechikkan. 6 ming 700 ta korxonada ish o'rinlari kamaygan. O'tgan yili eksport qilgan 135 ta korxonada bu yil hali chetga mahsulot sotmagan.

Viloyat sanoat o'sishi bo'yicha respublikada eng oxirgi o'rinda. Shuncha sharoit bo'la turib Farg'onada o'tgan yili bor-yo'g'i 220 million dollarlik meva-sabzavot eksport bo'lgan. Atigi 30 foiz ip-kalava qayta ishlanmoqda.

Ro'yxatga olingan 545 ta tadbirkor hisobraqam ochmagan, mingdan oshig'i bank orqali aylanma qilmagan. Shu bois ishchilar to'layotgan daromad solig'ining yarmini tuman budjetida qoldirish masalasi qo'yildi. Bu orqali tumanda manfaat ko'payishi,

tadbirkorlarni "soyadan" chiqarishi aytiladi.

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ko'p ishlar bajarildi. Ihsiz va muhtojlarga bank-moliya orqali ko'maklashish yo'lga qo'yildi. Endi yangicha yondashuvga ehtiyoj sezilyapti.

Davlatimiz rahbari buni Bog'dod tumani misolida tahlil qilib, tizim takomillashtirilishini aytdi.

– Kambag'al deb qancha nafaqa to'laganimiz bilan, ish topib bermasak, yana ijtimoiy yordamga qayta-qayta kelaveradi, boqimandalik kuchayib boraveradi. Shu bois endi kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya bir tizimda bo'ladi. Buni respublikada ijtimoiy himoya agentligi boshqaradi, – dedi Shavkat Mirziyoyev. Yig'ilishda viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

O'zbekiston Prezidentining 10-iyuldagi qaroriga ko'ra "Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasining hududi

Quvasoy shahrining Pakana, Kokilon va So'fon mahallalaridagi 210 gektarga kengaytirildi. U yerda 2026-yil oxirigacha kamida 1 milliard dollar miqdoridagi investitsiyalar o'zlashtirilishi, 11 mingdan ortiq ish o'ri yaratilishi, yiliga 965 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarilishi belgilangan. Mutasaddilarning bu boradagi vazifalari yana bir ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, Xitoy tajribasi asosida 19 ta tuman-shaharning har biri sanoatning aniq yo'nalishiga ixtisoslashtirilib, sanoat zonalarini tashkil qilinadi.

Yuqori qo'shilgan qiymat yaratish va ish o'rinlarini ko'paytirish sharti bilan qo'shimcha 1 ming 210 gektar yer ajratiladi. Buning uchun viloyat hokimligi huzurida direksiya tashkil qilinib, ushbu yerlar uning ixtiyoriga beriladi. Mahalliy tadbirkorlar sanoat zonalaridagi binolarni ijaraga yoki muddatli sotib olishi mumkin bo'ladi.

Sanoatni tuman va mahallaga tushirish uchun infratuzilma

xarajatlarga 50 million dollar ssuda ajratiladi. 161 ta yirik mahallada ham 4-5 qavatli sanoat markazlari tashkil qilinadi.

Davlatimiz rahbari Farg'onada sanoatga katta turtki beradigan loyihalarni ko'paytirish zarurligini ta'kidladi.

Xususan, energetika, neft-gaz va kimyo sohalarida 2 milliard dollarlik loyiha amalga oshiriladi. 700 million dollarlik investitsiya hisobidan 230 turdagi yangi qurilish materiallari ishlab chiqarish tashkil etiladi.

Elektr texnikasi sanoatida 420 million dollarlik, avtomobilsozlikda 500 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Jumladan, Quvasoyda elektromobilni zaryadlash stansiyasi hamda qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarish rejalashtirilgan. To'qimachilik tarmog'ida 300 million dollarlik loyiha orqali ip-kalavani qayta ishlashni 60 foizga olib chiqish mo'ljallangan.

Qishloq xo'jaligi sohasi tahlil

qilinarkan, so'nggi uch yilda 110 ming aholiga dehqonchilik qilish uchun 25 ming gektardan ziyod yer ajratilgan qayd etildi. Bu yerlarda uch martagacha hosil olish muhimligi aytiladi.

Farg'ona tumanida 200 gektarda sanoat usulida Italiya va Polshaning serhosil malina navlari ekiladi. Qo'shtepa va Yozyovonda yuqori hosildor bodom, shaftoli, gilos va olxo'ri bog'lari barpo etiladi. Yirik bog'bonlarning yerida muzlatkichli omborlar tashkil qilinadi.

Bog'bon-tadbirkorlar uchun qator yangiliklar e'lon qilindi. Meva-sabzavotni saqlash, saralash va qayta ishlash loyihalariga xorijiy valyutada olingan kreditlarning 6 foizgacha qismi qoplab beriladi. Quvasoy shahridagi 616 ta fermerning og'irini yengil qilish uchun yer solig'i yarmiga kamaytiriladi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

FARG'ONA SHAHRIDAGI "YANGI O'ZBEKISTON" BOG'INING OCHILISHIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIM ISHTIROKCHILARIGA

Qadri vatandoshlar! Hurmatli Farg'ona ahli! Avvalambor, siz, azizlarni "Oltin vodi" durdonasi bo'lgan Farg'ona shahrida bunyod etilgan muazzam majmua – "Yangi O'zbekiston" bog'ining ochilishi bilan chin qalbidan samimiy muborakkob etaman.

Hech shubhasiz, Yangi O'zbekistonimizning yana bir mo'jizasi bo'lgan mana shunday go'zal va betakror bog'ning barpo etilishi haqida so'z yuritganda, sizlar bilan 2021-yil 28-sentabrda Prezident saylovi arafasida bo'lib o'tgan uchrashuvimizni esga olishimiz tabiiydir. O'shanda Farg'ona shahrida 300 gektar maydonda Ekoshahar va "Yangi O'zbekiston bog'i"ni barpo etish haqida kelishib olgan edik.

O'tgan davr mobaynida bu ulkan loyihani ro'yobga chiqarish masalasini siz, azizlar bilan birgalikda yana bir necha bor muhokama qilib, fikr almashgan edik. Bugun sizlar hududda barchamiz orzu qilgan, zamonaviy qulayliklarga ega bo'lgan "Yangi O'zbekiston" bog'i qurib bitkazilganini ko'rib, g'oyat xursand bo'ldim.

Ushbu istirohat bog'i milliy an'analarimiz va jahondagi ilg'or bog'lar andozalariga mos holda yuksak talablar asosida barpo etilganini alohida ta'kidlashni istardim.

Jonajon O'zbekistonimizning yorqin timsollaridan biri sifatida qad rostlagan

bunday fayzli va muhtasham maskan barchamizga muborak bo'lsin!

Aziz do'stlar! Sizlarga yaxshi ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshirayotgan barcha o'zgarish va islohotlarimiz zamirida inson qadrini yuksaltirishdek buyuk maqsad mujassamdirl.

Bugun sizlar bilan birgalikda Farg'ona zaminida shu ezgu maqsad yo'lida yana bir ulkan amaliy qadam qo'ydik, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Chindan ham, 70 gektar maydonni egallagan, o'zining betakror qiyofasi, noyob manzarali daraxtlari, zamonaviy dam olish infratuzilmasi bilan mamlakatimizda alohida o'rin egallaydigan ushbu muazzam istirohat bog'ini aylanar ekanmiz, u shu yurtning egasi bo'lgan vatandoshlarimiz uchun, ularning baxtu saodati uchun xizmat qiladigan so'lim va tarovatli maskan sifatida bunyod etilganiga ishonch hosil qilamiz.

Ayniqsa, bu yashil makonning 65 ming aholi uchun mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" turarjoy massivi hududida barpo etilganining ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. Keksayu yosh barcha shahar ahli, mehmonlar va turistlar bu yerda ko'ngilli dam olishi, tabiat bilan oshno bo'lib, bu zaminning musaffo havosidan bahramand bo'lishi uchun barcha sharoit yaratilganini diqqatga sazovordir.

Bog' hududida 55 kilometr irrigatsiya tarmoqlari, 11 ta sug'orish qudug'i, 16 kilometrdan ziyod uzunlikdagi kanal barpo etilgan, bu yerni 32 ming tup buta va manzarali daraxtlar bezab turgani, aziz bolajonlarimiz uchun o'nlab turdagi zamonaviy attraksionlar o'rnatilgan ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Kecha men bog' hududida O'zbekiston Qahramoni, xalqimizning ardoqli farzandi, rahmatli Lolaxon Murotova nomidagi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi uchun barpo etilgan yangi bino bilan ham tanishdim.

Ishonchim komilki, ushbu bilim maskanidan kelgusida Lolaxon opaning ko'plab munosib izdoshlari yetishib chiqadi. Bu yerdagi yana bir muhim madaniy inshoot – 4 ming tomoshabinga mo'ljallangan zamonaviy amfiteatr haqida alohida o'xtalib o'tmoqchiman.

Barchamizga ayonki, Farg'ona – buyuk san'atkorlar va ijodkorlar yurti. Bu go'zal zaminidan yetishib chiqqan Halima Nosirova, Mukarrama Turg'unboyeva, Saodat Qobulova, Tamaraxonim, Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sulstonov, Tavakkal Qodirov, Murodjon Ahmedov kabi el suygan atoqli san'at ustalari, O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov, shuningdek, Yo'ldosh Sulaymon, Oxunjon Hakimov, Anvar Obidjon, Enaxon Siddiqova

singari hassos shoir va adiblar xalqimizning faxru g'ururi hisoblanadi.

Bugun mana shunday shukuhli makonda ana shunday ulug' zotlarning, ta'bir joiz bo'lsa, ruhi poklari ham shod bo'lmoqda, desak, yangilishmagan bo'lamiz.

Mazkur amfiteatr sahnasi Farg'ona vodiysining, xususan, maqom va askiya kabi nodir san'at an'analarini davom ettiradigan iste'dodli yoshlarimiz uchun o'ziga xos ijodiy parvoz maydoniga aylangan, ular o'zlarining yangi-yangi asarlari bilan xalqimizni xushnud etib, milliy madaniyatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shadilar, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, jonajon Vatanimiz mustaqilligining 33 yillik bayrami arafasida Farg'ona ahliga, butun xalqimizga mana shunday munosib sovg'a tayyorlagan qo'ligul quruvchi va muhandislarga, me'mor va bog'bonlarga, mutasaddi rahbarlarga, bu ezgu ishga hissa qo'shgan barcha-barcha yurtodoshlarimizga chin qalbidan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Farg'ona elining mana shunday savobli ishlari yanada ko'paysin, xalqimizning barcha ezgu orzu-umidlari ro'yobga chiqsin! Ushbu so'lim va betakror maskan barchamizga yana bir bor muborak bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Muloqot

PARLAMENTLARARO ALOQALARNI YANADA MUSTAHKAMLASH – MUHOKAMALAR MARKAZIDA

BRIKSning X parlament forumi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Parlamentlararo assambleyasi Kengashi majlisida ishtirok etish uchun Sankt-Peterburg shahrida amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva bir qator davlatlarning parlament rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Parlamentlararo aloqalarni yanada mustahkamlash muhokamalar markazida bo'ldi.

Xususan, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Senati Raisi Maulen Ashimbayev bilan uchrashdi.

Keyingi yillarda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi munosabatlar ikki davlat yetakchilarining ochiq, o'zaro ishonchga asoslangan muloqoti hamda qat'iy siyosiy irodasi tufayli do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasida rivojlanayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Muloqotda parlamentlararo aloqalarni amaliy mazmun bilan yanada boyitish masalalari tomonlar e'tibor markazida bo'ldi. O'zbekiston va Qozog'iston Senatlari o'rtasidagi parlamentlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishini o'tkazish va hamkorlikka oid yangi "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishga kelishib olindi.



FARG'ONA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA USTUVOR VAZIFALAR BELGILAB BERILDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Farg'onada turizm salohiyati ham katta. Sayyohlarga qulaylik yaratish uchun Shohimardon va Yordon qishloqlariga vertolyot parvozini yo'lga qo'yish, "Vodil" va "Oq-qiya" postlariga xalqaro maqom berish masalasi ko'rib chiqildi. Mutasaddilarga ushbu qishloqlar va Vodil shaharchasining master-rejasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Farg'ona tumanini turistik rekreatsion zona qilish bo'yicha topshiriq berildi.

Yig'ilishda Quva tumanida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va xizmatlarni rivojlantirish, Qo'qon va Marg'ilon shaharlarida ko'p qavatli uylar, sanoat korxonalarini, madaniyat va turizm maskanlari barpo etish masalalariga alohida to'xtalib o'tildi.

Yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat va sadoqat, bugungi tinch-osoyishta hayotimizning qadriga yetish hamda shukronalik tuyg'ularini chuqur singdirish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida Qo'qon va Marg'ilon nuroniyalar, imom-xatiblar, mahalla faollaridan iborat Oqsqoqlar kengashi va

ota-onalar guruhlarini tuzish taklifi ilgari surildi.

Yig'ilganlar ushbu taklifni qo'llab-quvvatlab, tarbiyasi og'ir yoshlarni to'g'ri yo'lga solish, adashgan, murakkab vaziyatga tushib qolgan yoshlarga o'z o'rini topishda yordam berish, ularni ma'rifatga chorlash, ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha tajriba yaratilsa, bu butun respublikaga namuna bo'lishiga ishonch bildirdi.

Umuman, viloyat hokimi va o'rinbosarlari, shahar va tuman rahbarlari mas'uliyatini oshirib, yil yakuniga qadar asosiy kapitalga 2,1 milliard dollar qo'shish, 400 ming odamni band qilish, 80 ming oilani kambag'allikdan chiqarish bo'yicha xalq oldida kafolat berdi. Viloyat Kengashi deputatlari komissiya tuzib, buni nazoratga oladi.

Bank va hududiy filiallar boshliqlari ishlab chiqarish, xizmatlar, bandlik dasturlarini moliyalashtirish rejalari bo'yicha hisobot berdi.

Davlatimiz rahbari jamoatchilik vakillari bilan ochiq muloqot o'tkazdi.

Shundan so'ng Prezident "Uz-Segang" qo'shma korxonasining intensiv bog'ini ko'zdan kechirdi. Tadbirkorning muammo va takliflarini so'radi.

Korxonaga Quva tumanidan qariyb 2 ming gektar va Quvasoy shahridan 1 ming 600 gektar yer ajratilgan.

Bu adirlik ilgari foydalanilmaydigan yaydoq joylar edi. Davlatimiz rahbarining 2020-yil iyunda Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida tadbirkorning bu yerda bog' yaratish taklifi qo'llab-quvvatlandi.

Hozir mazkur agroloyiha bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Dastlabki ikki yilda 450 gektar yerda intensiv bog' yaratilib, tomchilatib sug'orish yo'lga qo'yildi. Eksportbop gilos va shaftoli ko'chatlari hosilga kirib qoldi.

Kelgusi ikki yilda qayta o'zlashtirilgan bu yerlarda yana 980 gektar intensiv bog' barpo etiladi. Shuningdek, ekoturizm va logistika markazlari ishga tushiriladi. Eng muhimi, yana qo'shimcha 200 ta doimiy, 3 mingta mavsumiy ish o'rni paydo bo'ladi.

O'tgan yili korxonada tomonidan fermer xo'jaliklari va xonadonlardan 1 ming 700 tonna gilos, shaftoli va anor yig'ib olinib, 5 million dollardan ziyod eksport qilindi. Bu yil eksport miqdorini 15 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Korxonaga faqat meva yetishtirish bilan cheklanmaydi. Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya va Xitoydan ilg'or texnologiyalar keltirilib, mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash, qadoqlash yo'lga qo'yilgan.

Prezident bu kabi loyihalarni ko'paytirish zarurligini ta'kidlab, buning uchun qanday taklif bo'lsa, qo'llab-quvvatlashga tayyorligini bildirdi. Shu yerda viloyatdagi agrosanoat mahsulotlari namoyish etildi. Sohadagi kelgusi rejalari taqdimot qilindi.

Viloyatda 48 ming 300 gektar bog' va tokzor mavjud bo'lib, uning 3 ming 400 gektarini intensiv bog'lar tashkil etadi. Keyingi to'rt yilda 6 ming 400 gektar bog' va 2 ming 900 gektar tokzorlar barpo etilgan. Shuningdek, 1 ming 400 gektarda tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan.

Bu yil yana 3 ming 400 gektar intensiv bog' va tokzorlar barpo qilinib, 2 ming 400 ta ish o'rni yaratilishi mo'ljallangan.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Farg'ona viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari.

PARLAMENTLARARO ALOQALARNI YANADA MUSTAHKAMLASH – MUHOKAMALAR MARKAZIDA



Do'st mamlakatlar va qardosh xalqlar o'rtasidagi hamkorlik bundan buyon ham o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan holda konstruktiv tarzda rivojlanishiga umid bildirildi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Sankt-Peterburg shahrida Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashi Raisi Natalya Kochanova bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muzokara chog'ida ikki davlat o'rtasida parlamentlararo muloqotni samarali davom ettirish masalalari muhokama qilindi.

Tomonlar o'tgan yili imzolangan Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum munosabatlarni yanada yuqori bosqichga olib chiqishga imkon berganini ta'kidlab.

Ushbu Memorandumni amalga oshirish bo'yicha hamkorlikdagi amaliy choralar rejasini ishlab chiqish va qabul qilish yuzasidan fikr almashildi.

Unda oliy darajadagi tashriflar chog'ida erishilgan kelishuvlar ijrosini birgalikda monitoring qilish mexanizmini takomillashtirish, parlament faoliyati sohasida tajriba almashish, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish va ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish hamda yoshlar parlamentlarining rolini mustahkamlash kabi masalalarni aks ettirishga kelishib olindi.

Tanzila Norboyeva Natalya Kochovaning O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelishiga taklif qildi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Sankt-Peterburg shahrida Hindiston parlamenti quyi palatasi Spikeri Om Birla bilan muzokara o'tkazdi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Hindiston o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, turizm hamda parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Muloqotda parlamentlararo munosabatlarni rivojlantirishning amaliy jihatlari e'tibor qaratildi.

Yuqori darajada erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan tizimli parlament nazoratini yo'lga qo'yish, o'zaro tashriflar tashkil etish orqali qonun ijodkorligi, elektron parlament yo'nalishida tajriba almashish lozimligi ta'kidlandi.

Mazkur jihatlarni qamrab olgan o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga oid hujjat loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlashga kelishib olindi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Ozarbayjon Respublikasi Milliy Mejlisi Raisi Sahiba Gafarova bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat chog'ida ikki davlat yetakchilarining do'stona va o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlari mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalari rivojlanishida mustahkam asos bo'layotgani ta'kidlandi.

Parlamentlarning yuqori darajadagi ikki tomonlama kelishuvlar amalga oshirilishini ta'minlashdagi ishtirokini kuchaytirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Tomonlar shu yilning iyun oyida imzolangan parlamentlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada yuqori bosqichga ko'tarishga qaratilgan 2024-2025-yillarga mo'ljallangan yangi "Yo'l xaritasi" asosida munosabatlarni mustahkamlashni davom ettirishga kelishib oldi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenko bilan muzokara o'tkazdi.

Parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish istiqbollari va mintaqaviy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.


Suhbat avvalida ikki davlat rahbarlarining munosabatlari o'ziga xos – do'stona, o'zaro ishonchga asoslangan, mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar har tomonlama strategik sheriklik xarakteriga ega ekani alohida qayd etildi.

Muloqot chog'ida iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni amaliy mazmun bilan boyitish yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasida erishilgan kelishuvlarni va savdo-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish, ikki mamlakat hududlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga ko'maklashish uchun parlament diplomatiyasi mexanizmlaridan faol foydalanish zarurligiga urg'u berildi.

Tomonlar xalqaro parlamentlararo tashkilotlar, xususan, MDH Parlamentlararo Assambleyasi va Parlamentlararo ittifoq doirasidagi hamkorlikni faol davom ettirish yuzasidan yakdill fikr bildirdi.

"Xalq so'zi".



Iftixor

Kelajak bunyodkorlariga

Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

Odamlar bor – haydab yurar faqat suruv-suruv gap,
Gulira'no bug'doylari – Farg'onada "dov-duv" gap.
Gulira'no kim o'zi u, deb so'rarsiz ehtimol,
Rishtonadagi "Qayrag'och"da unib-o'sgan navnihol.

Behisht bog'idan nishon deb, dilkash debon, dilrabo,
Bu joylarni maqtab o'tgan hatto Muqimiy bobo.
Aytay endi, ey yoronlar, kelgach gapning xonasi,
Yo'lchiboydir otasiyu, Ozodaxon – onasi.

Bu "Qutlug' qon" romanida kelgan Yo'lchiboy emas,
Ammo, lekin, nega do'stlar bu Yo'lchiboy boy emas?..
Kimlar ig'vo o'chog'iga o't qalab, o't yoqardi,
Diydiragan paykallardan mustaqillik boqardi.

Haq-huquqi toptalgan bir millatning zorlaridan
So'ylar edi uch kunlik don Vatan omborlaridan.
Hamma narsa bor ediyu, go'yo erk ham bor edi,
Hamma narsa bor edi, lek elu yurt nochor edi.

O'shal og'ir kunlar aro rag'bat topmay, e'tibor,
Yurtim, ne-ne Yo'lchiboyday dehqonlarning bo'ldi xor.
Yot ellarda xoru abgor – misli sabil jonlarning,
Mardikorlik bozorlarin to'ldirdi o'g'lonlarning.

Tund, qorong'u kechalarda chirog'ing yonmay sira,
Yupun, g'arib ro'zg'oringni battar etardi xira.
O'sha paytlar boshlangandi fermerlik harakati,
Na barori bor edi, na bor edi barokati.

Eru xotin fermer bo'ldi yaxshi niyatlar bilan,
Yer olishdi, yer chopishdi ming aziyatlar bilan.
Lekin bordir ushbu ishda ma'lum qonun-qoida:
Barcha ishlov bo'lmog'i shart o'z vaqti, o'z joyida.

Ammo qiziq edi davr: g'oya boru muhit yo'q,
O'g'it bo'lsa, suv tanqisdir, suv bo'lsa gar – o'g'it yo'q.
"Eru xotin – qo'sh ho'kiz" deb yarim tunda qaytardi,
Ayol boshi bilan xotin traktor ham haydardi.

Bir jafokash oila na tinim bildi, na qo'nim,
Na turmushda fayz bor edi, na ishida bir unum.
Adolatu halovatdan hech oshnolik ko'rmagan,
Zahmat chekib, jon chekib ham bir ro'shnolik ko'rmagan.

O'shal og'ir zamonlarga bir zum qaytayin endi,
Qiyin kechgan majlislardan bir gap aytayin endi:

Og'zakidan doimo "besh" olib kelgan qalloblar,
El boshiga ish tushganda tirqiragan kazzoblar.

Zamon ichra shikva aylab har to'g'riyu egridan,
Otdan tushgan bo'lsalar-da, tushmagandi egardan.
O'ylamangkim, bu moziydan bir naql yo'riyovat,
Bu – yaqin shu o'tmishdan bir munglug', hazin hikoyat.

Mana shunday kunlar aro tug'ildi u qizaloq,
Misoli bir qizg'aldog'u misoli bir ismaloq.
Bu xonadon farzandlari – yangi zamonga timsol,
Bir qizaloq o'sdi bunda bug'doy maysasi misol.

Qiz bolani ne uchun biz "onajon" deb alqaymiz,
Jismu joni jonga payvand, jonajon deb alqaymiz.
Uch yoshidan otasining yonida u pildirab,
Paykallarga borar edi sho'x irmoqday jildirab.

Gulira'no qo'ygandilar garchi uning ismini,
Bolalikdan sog'inardi bug'doyzorlar isini.
Bir qo'msovday kechar edi polaponlik pallalar,
Xayolini band etardi u yam-yashil dalalar.

Qo'sh qizaloq yayrar edi oila gulzorida,
O'g'il bola yo'q edi lek dilbandlar qatorida.
Elda bunday otalarni jannatiy derlar asli,
Umr – ayni yoz faslidir, umr saraton fasli.

Inshoolloh, el oldida yorug' bo'lgay yuzimiz,
Otasiga aytdi bir kun Gulira'no qizimiz:
Bag'ringizda mayli shodu xandon o'y nab-kuloyin,
O'g'lim yo'q deb o'ksinmang hech, men o'g'lingiz bo'loyin.

O'tdi qancha ranju alam, o'tdi qancha riyozat,
Mamlakatda el o'zgardi, o'zgardi ham siyosat.
Qaldiroqlar to'ldirganday yeru ko'k, osmonlarni,
Bosh me'mori keldi oxir bu davru zamonlarni.

Ko'rmayin bu ayyomlarning ko'rkam qasri bunyodin,
Ne-ne Haziniy bobolar hazin o'tdi dunyodin.
"O'tkan kunlar" asorati ketmas hargiz dillardan,
Qodiriy ham bir mehmonday ketmish bu manzillardan.

Ma'murjoni jon berganda navo aylar chog'ida,
Butun bir el jon bergandi Marg'ilonning bog'ida.
Ta'qiqqlangan qo'shiqlardan aytsin tirik shohidlar –
"O'zbekim" deb armon bilan o'tdi Erkin Vohidlar..

Yangi zamon shiddatlidir, o'tar gulduros solib,
Uning har bir toshqinidan bir "Shohnoma" ol yozib.

Nainki bir Farg'onada, borliq kavnu makonda,
Bir tong otdi yarqiragan Yangi O'zbekistonda.

Bu she'rinni men atayin yo'rtaga cho'zmadim,
Ona yurtim, xasingdan ham aslo ko'ngil uzmadim.
Garchi tunlar paykalida donday bir so'zga zorman,
O'rog'ing ham, mashog'ing ham, boshog'ingda ham borman.

Bu she'rinni senga bitdim, bosdi hayajon, singlim,
Gulira'no, jon singlim-ay, Gulira'no, jon singlim!

O'zbekiston Qahramoni Lola opa shogirdi –
Qiz bolaning otasiga joni doim og'rirdi.

Zukko edi, Londonlarda olsa bo'lardi ta'lim,
Lekin unga shu zahmatkash zotlar bo'ldi muallim.
Yiroq edi kibru havo, soxta sharaf-shonlardan,
Tuproq ilmin o'rgandi u tuproqday insonlardan.

Ona yurtim, men bolangman, qoshu ko'zim o'zingsan,
O'tajonim o'zingdarsan, onajonim o'zingsan.
Qo'llaringning qadog'ida ming-ming taqdiri izi bor,
Kafllaringda bug'doy ismi, non va tandir ismi bor.

Gulira'no desam, shu on bug'doy, non ismi kelar,
Sog'intirgan singillarning mehribon ismi kelar.
Shu boisdan dunyoda eng xushro'yimsan, Vatanim,
Bug'doybo'yim Vatanimsan, xushbo'yimsan, Vatanim!

Sen o'zingsan zahmatlarga bardosh bergan, dosh bergan,
Duo aylab, elu yurtga quyosh bergan, osh bergan.
Millyon-millyon botmon bo'ldi ko'targan xirmonlaring,
Oltin boshog' tonglar bo'ldi ming yillik armonlaring!

Hali bu xalq millat bo'lib bunday bug'doy o'rmagan,
Bug'doy o'rib, xirmon ko'rib, bunday xirmon ko'rmagan.
Sadag'asi ketsang arzir davru davronlar uchun,
Vatanim deb jonin tikkan mardiy maydonlar uchun!

Shu elimga davlat bersin, g'urur bersin, nomus-or,
Rizqu ro'zin butun qilsin Yaratgan parvardigor.
Dilbandlarga ona Vatan yagonadir, tanhodir,
Gulira'no bug'doylari – millyon-millyon tonnadir!

Bir qizingda qancha xislat, qancha hikmat ko'rdim men,
Bug'doyzorlar aro kezib bug'doy so'zim o'rdim men.
Ey Farg'ona, zamonaviy Kumushxonlar diyori,
Gulira'nolarning bugun kelajak bunyodkori.

Shu boisdan dunyoda eng xushro'yimsan, Vatanim,
Bug'doybo'yim Vatanimsan, xushbo'yimsan, Vatanim!..

Aks sado

ASOSIY MAQSAD – AHOLI UCHUN MUNOSIB TURMUSH SHAROITLARI YARATISH

Keyingi yillarda yurtimizning barcha hududida, jumladan, Farg'ona viloyatida ham ulkan ishlar qilinib, salmoqli natijalar qo'lga kiritildi. Masalan, yirik loyihalar amalga oshirildi, qishloq xo'jaligiga esa zamonaviy texnologiya va usullar keng joriy etildi. Shahar va qishloqlar qiyofasi tubdan o'zgaradi. Muhimi, bu yangilanishlar odamlar hayotida yaqqol aks etmoqda.

Kuni kecha Prezidentimizning Farg'onaga tashrifi doirasida yurtimiz taraqqiyoti uchun juda muhim bo'lgan yana qator loyihalarga start berildi, bu viloyatning istiqboli yanada porloq bo'lishidan dalolat beradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi besh yilda Farg'onada sanoat hajmi 1,3 barabarga ko'paygan, eksport hajmi qariyb 2 barabar oshgan va 722 million dollarni tashkil etgan. E'tiborlisi, investitsiyalar miqdori ham yil sayin o'sib bormoqda. Agar 2018-yilda viloyatda bor-yo'g'i 90 mln. dollar sarmoya o'zlashtirilgan bo'lsa, o'tgan yili bu ko'rsatkich 1 mlrd. 300 mln. dollar bo'lgan. Chet el kapitali ishtirokida korxonalar soni esa 470 taga yetdi.

Bugungi kunda viloyatda 110 ta loyiha bo'yicha 6 mlrd. dollarlik xorijiy investitsiyalar va 1,1 mlrd. dollarlik 22 ta mahalliy loyihani o'zlashtirish bo'yicha ishlar jadallik bilan olib borilyapti. Loyihalar ishga tushirilishi hisobiga

qariyb 20 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratiladi. Bu qanchadan-qancha oilalar farovonligi oshadi, deganidir. Tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida sanoat zonalarini maydonlari 210 gektarga kengaytiriladigan bo'ldi. Ularda qiymati 1 mlrd. dollarlik bo'lgan 185 ta sanoat loyihasi joylashtirish va qo'shimcha 12 mingta yangi ish o'rnini yaratish maqsad qilingan.

Qolaversa, Qo'qon shahrida 230 gektar maydonda "O'zbekiston – Xitoy" maxsus sanoat zonasi tashkil etiladigan bo'ldi. Shu o'rinda yana bir mulohazani aytib o'tish joiz. Gap elektr energiyasiga talab tobora oshib borayotgani bilan bog'liq. Darhaqiqat, bugungi kunda elektr energiyaga bo'lgan talab yiliga o'rtacha 6 foizga oshib boryapti. Shu bois an'anaviy manbalar bilan birga qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini ham rivojlantirishni davrning o'zi talab etmoqda.

Tashrif davomida ushbu masalaga ham alohida e'tibor qaratildi. Shundan kelib chiqqan holda Beshariq tumanida 500 megavattli quyosh elektr stansiyasi quriladi. O'zbekiston tumanida xorijiy investitsiya hisobiga 150 megavattli ilk elektr energiyasini saqlash tizimi va Farg'ona tumanida kichik gidroelektr stansiyalari barpo qilinadi. Asosiysi, bu zamonaviy stansiyalar energetika xavfsizligini ta'minlabgina qolmay, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda ekologik barqarorlikni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'rinib turibdiki, viloyatda yaqin istiqbolda ko'plab ezgu ishlar ro'yobga chiqariladi. Bu sa'y-harakatlar esa pirovardida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, turmush darajasini yaxshilash, shuningdek, kelajak avlod uchun istiqbolli sharoitlari yaratish imkonini beradi. Zero, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham aholi uchun munosib turmush sharoitlari yaratishdan iborat.

Anvar TO'YCHIYEV, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasida doimiy asosda ishlovchi senator.

ISTIQBOLLI LOYIHALAR XALQ FAROVONLIGIGA XIZMAT QILADI

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar samaralari Farg'ona viloyatida ham o'z ifodasini yaqqol topmoqda. Aholi sanoat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmat ko'rsatish sohalarida fidokorona mehnat qilib, yurtimiz taraqqiyotiga, uning yanada gullab-yashnashiga munosib hissa qo'shayotir. Davlatimiz rahbarining

Farg'ona viloyatiga bu galgi tashrifi hudud ahlini birdek quvontirdi, desak, aslo yangilashmaymiz. Binobarin, tashrif davomida qator yangi g'oya va tashabbuslar ilgari surildi, bu fuqarolarning turmush tarzi yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga mazkur viloyatdan saylangan deputatlarning bu bo'yicha fikrlari bilan qiziqdik.

Hudud taraqqiyotida yangi davr

Dilbar MAMAJONOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zXDP fraksiyasi a'zosi: – Darhaqiqat, bugun Farg'onada yangi-yangi loyihalar ro'yobga chiqarilib, aholi farovonligi ta'minlanmoqda. Prezidentimizning yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan qator Farmon va qarorlari ijrosi viloyatda o'z aksini topmoqda. Xususan, Qo'qon shahrida yangidan ochilgan aeroport endi xalqimizning uzog'ini yaqin qilish bilan birga, turizmni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Ayonki, hududni har tomonlama taraqqiy ettirishda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, qulay biznes muhitini yaratish va xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda aytganda, keyingi yetti yilda Farg'ona viloyatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 77 trln. so'mni tashkil etmoqda. Buning natijasida 116 mingta ish o'rnini va 4,5 mlrd. dollarlik

eksport imkoniyati yaratilgan.

Shuningdek, xorijiy investor va mahalliy tadbirkorlar tomonidan umumiy qiymati 7 mlrd. dollardan ziyod 132 ta loyiha shakllantirilgan. Ushbu loyihalar tatbiq etilishi natijasida esa 23 mingdan ortiq aholi ish bilan ta'minlanishi e'tiborga molik.

Prezidentimiz faollar bilan o'tkazgan yig'ilishda viloyatning 19 ta tuman-shahrini Xitoy tajribasi asosida sanoatning aniq yo'nalishiga ixtisoslashtirish va ularda sanoat zonalarini tashkil qilish belgilandi.

Avvalo, Farg'onada sanoatga katta turtki beradigan loyihalar ko'paytirildi. Xususan, energetika, neft-gaz va kimyo sohalarida 2 milliard dollarlik loyihalar rejalashtirilgan.

Viloyatning Beshariq tumanida 500 megavattli, O'zbekiston tumanida 180 megavattli fotoelektr stansiyalari qurilishiga start berildi. Quvasoy shahrida elektromobilni zaryadlash stansiyalarini ishlab chiqarish

korxonasi joriy yilda ishga tushirilsa, Rishtonda yiliga 17 ming tonna biologik parchalanadigan noto'qima mato ishlab chiqarish bo'yicha loyiha ishlari jadallashiriladi. Ushbu zamonaviy inshootlar energetika xavfsizligini ta'minlashga, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, ekologik barqarorlikni yaxshilashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari qariyb 20 yil yopiq bo'lgan Farg'ona tumanining Shohimardon va Yordon anklav qishloqlariga ham e'tibor qaratdi. Mazkur qishloqlarga to'siqsarsiz o'tish imkoniyati yaratilsa, tadbirkorlar mazkur 2 ta qishloqqa 100 mln. dollar investitsiya kiritadi hamda qishloq aholisi uchun ish o'rinlari yaratiladi.

Bugun Farg'ona viloyatida o'zgarishlar juda katta. Ayniqsa, sanoat, qurilish sohalari rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar salmog'i nihoyatda keng. Davlatimiz rahbarining viloyatga tashrifi tom ma'noda, hudud taraqqiyotida yangi davrni boshlab beradi.

Ishbilarmon ayollar mehnati e'tirofi

Gulbahor SAIDG'ANIYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi:

– Prezidentimiz Farg'ona viloyatiga tashrifi doirasida hudud rivoji bilan yaqindan tanishish maqsadida qator yangi obyektlarda bo'ldi, aholi bilan uchrashdi. Aytish joizki, Qo'qon aeroportining ochilishi erkin iqtisodiy zona joylashgan, qadimiy hunarmandchilik rivojlangan va boshqa ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarga ega bo'lgan ushbu turizm shahri uchun o'ta zarur edi. Binobarin, bugun Qo'qon va uning atrofidagi 300 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. Ichki turizm mehmonlari va tashqi sayyohlar ham ushbu hududda ko'p bo'ladi. Mamlakatimiz rahbari ilk bor yirik havo kemasi qabul qilgan Qo'qon aeroportida yaratilgan sharoitlar bilan tanishar ekan, parvozlari sonini oshirish, narx va xizmatlarni odamlarga qulay qilish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Tashrif davomida davlatimiz rahbari Qo'qon universitetida yaratilgan sharoitlar bilan ham tanishdi. Universitet yaqinidagi Tepa-qo'rg'on arxeologiya yodgorligini ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish tashabbusini ilgari

quvvatlayotgan Gulnora Usmonova ko'plarga namunadir.

Hozirgi vaqtda islohotlarning natijasi bag'dodliklar hayotida ham yaqqol aks etmoqda, desak, ayni haqiqat. O'tgan yillardagi Prezident tashrifi, alohida e'tibor tufayli Bag'dod tumanining eng chekka, ko'rimisiz dasht qismida bugun yangi massiv barpo etildi. Barcha sharoit, qulay infratuzilmaga ega yangi qurilgan Guliston mahallasida bugungi kunda aholi yayrab istiqomat qilmoqda.

Yana bir ahamiyatli jihati, davlat rahbari tomonidan Farg'onada yirik sanoat va energetika obyektlari faoliyatiga hamda qurilishiga start berilishi ko'p milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish va bunday ishlarni davom ettirishga asos bo'ldi. Qadimdan sanoat shahri hisoblangan Farg'onaning yangidan shunday maqomga ega bo'lishi, qolaversa, tashrif davomida ilgari surilgan taklif va tashabbuslarning ro'yobga chiqarilishi farg'onalarning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlash barobarida, farovonligi, yashash tarzini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

"Xalq so'zi".



Muhofazalanadigan tabiiy hududlar yanada kengaytiriladi

Yurtimizda ekologik holatni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha keng qamrovli islohotlar olib borilayotgani hammaga ma'lum. Ammo keyingi yillarda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq kuzatilayotgan holatlar bu yo'nalishdagi ishlarni kuchaytirishni talab etayotgani ham bor gap. Masalan, Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan, O'zbekistonda iqlim o'zgarishining oqibatlari yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Munosabat

Global iqlim o'zgarishi tufayli yil fasllari (mavsumlari) surilishi, atmosfera yog'ingarchiligi sikllari va landshaft strukturasi o'zgarishi, suv tanqisligi ko'zga tashlanmoqda. Boz ustiga, suv iste'moli ortishi va parlanish oshishi, yashash muhiti nomaqbul bo'lishi oqibatida ayrim hududlarda ekologik migratsiya vujudga kelmoqda.

Shundan kelib chiqib, yurtimizda o'ziga xos, noyob, qimmatli tabiiy obyektlar va majmualarni, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish, tabiiy jarayonni o'rganish, ekologik ta'lim-tarbiyani kuchaytirish maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini yaratish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari ko'rilayotir. Biroq joylarda olib borilgan o'rganishlar va nazorat-tahlil tadbirlari chog'ida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sifat tarkibini yaxshilash, ularni boshqarish, shu hududlar o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, kadastrini yuritish, sohada kadrlar tayyorlash masalalarida hamon ayrim muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotgani aniqlandi.

Yodingizda bo'lsa, Oliy Majlis Senati ellik birinchi yalpi majlisida shu masala atrofida ko'rib chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborish haqidagi to'xtamga kelingan edi. Ushbu so'rovda sohaga yo'naltirilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni yanada kengaytirish, hududlar xususiyatlarini asosida biologik xilmaxlilik indikatorlarini ishlab chiqish, kadastr ma'lumotlarini to'plash, ularning tahlili, sohani raqamlashtirish va ilmiy-metodik ta'minlash, bu borada davlat nazoratini kuchaytirish, davlat-xususiy sheriklik qoidalari joriy etish hamda huquqbuzarliklarning oldini olish bilan bog'liq jihatlar qamrab olingandi.

Senatning yaqinda bo'lib o'tgan ellik to'rtinchi yalpi majlisida ana shu

so'rovga kelgan javoblar atrofida ko'rib chiqildi.

Ma'lum bo'lishicha, bu borada Hukumat tomonidan muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Masalan, so'nggi besh yilda bevosita muhofaza etiladigan tabiiy hududlar faoliyatiga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 13 ta qarori va 1 ta farmoyishi qabul qilingan.

Olib borilgan ishlar natijasida yurtimizda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni 6,4 mln. gektarga yetkazilib, hozirda mamlakat hududining 14,8 foizini tashkil qilmoqda. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti tashkil etilib, uning tarkibiga umumiy maydoni 5,8 mln. gektar bo'lgan 24 ta shunday hudud kiritilgan.

Aytish joizki, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini 14,2 foizgacha kengaytirish maqsadida Prezidentimizning 2024-yil 21-fevraldagi Farmoniga muvofiq, joriy yil avgustda Farg'ona va Namangan viloyatlarida milliy tabiat bog'larini tashkil etish rejalashtirilgan.

Shularga mos ravishda "Surxon" va "Nurota" davlat qo'riqxonalari hamda "Zarafshon" milliy tabiat bog'i hududini 11,5 ming gektarga kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori tayyorlangan. Ayni chog'da transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan va manfaatdor tomonlarga taqdim qilingan.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda biotekhnika muhofaza qilish bo'yicha axborotni boshqarish tizimi – bcims. uznature.uz geoportali yaratilib, Kadastr agentligining Milliy geografik axborot tizimi – map.geoportali.uz geoportali integratsiya qilingan va ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yilgan.

O'simlik va hayvonot dunyosi

Ishchi guruhlarda

Yer uchastkalarini ijaraga berishda huquq va majburiyatlar

Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi tomonidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan ishchi guruh yig'ilishi o'tkazildi.

Ikkinchi o'qishga tayyorlanayotgan mazkur qonun loyihasi bilan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion savdolari orqali ijaraga berish belgilanmoqda.

Shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari ijarachilariga ijaraga berilgan yer uchastkalari bo'yicha o'z huquq va



majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazishga, ya'ni qayta ijaraga berishga ruxsat etish nazarda tutilayotir.

Ishchi guruh yig'ilishida qonun loyihasidagi normalar deputatlar tomonidan berilgan taklif va tavsiyalar asosida takomillashtirildi.

Qonun loyihasini maromiga yetkazish ishlari davom etmoqda.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat subsidiyalari joriy etiladi

Budjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun loyihasi yuzasidan ishchi guruh yig'ilishi o'tkazildi.

Ta'kidlanganidek, 8 ta bo'lim, 34 ta bob, 404 ta moddadan iborat qonun loyihasida tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanayotir. Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasiga asosan, tadbirkorlik subyektlarining kichik, o'rta va yirik toifalari belgilanmoqda.

Shu bilan birga, tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning

chegaralari hamda tartibga solish shakllari ko'zda tutilayotir. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat subsidiyalari joriy etishning tartiblari belgilanmoqda.

Qonun loyihasi mas'ul qo'mita tomonidan siyosiy partiyalar fraksiyalari yig'ilishlari kun tartibiga kiritish uchun tayyorlanmoqda.

obyektlarini hisobga olish hamda monitoring qilish bo'yicha smart monitoring tizimi joriy etilgan. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tasarrufidagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda 527 ta fotoqopqon o'rnatilib, yovvoyi hayvonlar hisobi va monitoringi yuritib kelinayotir.

Vazirlar Mahkamasining so'z yuritilayotgan javobida yana ko'plab yutuq va natijalar batafsil keltirib o'tilgan. Bularning barchasi yaxshi, albatta. Ammo hali oldimizda ko'plab dolzarb vazifalar turganini ham unutmashlik kerak. Masalan, parlament so'rovida ko'rsatilgan ayrim masalalar hamon o'z yechimini topgani yo'q.

Jumladan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda biotekhnika tadbirlar uchun mablag'lar mahalliy budjet hisobidan ajratilishi kerak bo'lgani holda, ko'pincha ular tomonidan mablag' berilmagan. Aksariyat hollarda bu tadbirlar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi budjetdan tashqari mablag'lari hamda homiy tashkilotlar mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan.

Hududlar xususiyatlarini hamda tabiiy majmualar va hududiy farqlarni hisobga olgan holda ular uchun mos keladigan ekologik indikatorlarni ishlab chiqish ishlari kechiktirilayotgani ham achinarlidir.

Qolaversa, noqonuniy chorva mollari boqilishi va boshqa salbiy omillar sababli muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik xilmaxliligining qisqarishi, umumiy biomassasi siyraklashishi davom etyapti. Kamiga esa sohada ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmayapti. Kadastr yuritish ishlari to'laqonli tashkil etilmagan. Kadastr yuritishning zamonaviy metodologiyasi esa ishlab chiqilmagan.

Yana qator muammolar borki, ular hech kimni befarq qoldirmaydi. Ularga yechim topish, biz, parlament vakillaridan ham katta mehnat va mas'uliyat talab etadi.

Boriy ALIXONOV, Oliy Majlis Senatining Orolbo'y mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi.

Fuqarolar shovqinning zararli ta'siridan himoyalana

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi tomonidan "Aholini shovqinning zararli ta'siridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash yuzasidan ishchi guruh yig'ilishi o'tkazildi.


Qonun loyihasi bilan aholini shovqinning zararli ta'siridan himoya qilishning asosiy prinsiplari, ushbu sohada davlat organlarining vakolatlari, atrof tabiiy muhitga shovqin orqali zararli ta'sir ko'rsatganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini belgilanmoqda.

Shuningdek, davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslarning aholini shovqinning zararli ta'siridan himoya qilish sohasidagi vazifa va funksiyalari hamda javobgarlik sohalari aniq chegaralari nazarda tutilayotir.

Yig'ilishda qonun loyihasidagi normalar deputatlar bergan takliflar asosida olimlar, mutaxassislar, soha ekspertlari ishtirokida maromiga yetkazilmoqda.

Qonun loyihasini takomillashtirish ishlari davom etyapti.

"Xalq so'zi".



KUTUBXONALAR GAVJUM EMASLIGI KITOBXONNING AYBIMI?

Mashhur fransuz adibi Deni Didro kitob va kitobxonlik haqida shunday deydi: "Odamlar o'qishdan to'xtashlari bilan fikrlashdan ham to'xtaydi". Uyg'ri esa ayon: fikrlashdan to'xtagan jamiyat hech qachon oldinga yurmaydi, yo ortga ketadi yoki joyida deysinib turaveradi. Rivojlanish, yuksalish uchun esa, albatta, kitob kerak, uni o'qigan va uqgan, ma'naviy immuniteti yuqori, fikri teran avlod zarur.

Achchiq, ammo ochiq gaplar

Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda kitobxonlik targ'ibotiga davlat ahamiyatiga molik ish sifatida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Xususan, Prezidentimizning 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori bu borada katta voqelik bo'ldi, desak, yangilishmaymiz. Ushbu qaror bilan tasdiqlangan tegishli dastur asosida sohada tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi va bu ishlar izchil davom etmoqda. Ammo bu borada hali yechimini kutayotgan masalalar ham yo'q emas. Fikrimizni Qashqadaryo viloyatidagi kitobxonlik muhiti misolida davom ettirsaq.

Bugungi kunda Qashqadaryo aholisiga hudduda jami 16 ta kutubxona, ya'ni viloyat axborot-kutubxona markazi, viloyat bolalar kutubxonasi hamda 14 ta tuman va shahar axborot-kutubxona markazi xizmat ko'rsatmoqda. Ammo ulardagi adabiyotlarning umumiy soni 700 mingga ham yetmaydi. Ushbu kitoblarning aksari bundan 50 – 60 yil avval nashr qilingan, bugungi kun ruhiga mos bo'lmagan badiiy adabiyotlardir.

Viloyatdagi axborot-kutubxona markazlariga kitobxonlik targ'ibotini yuqori darajaga olib chiqish, kitobxonlar uchun har tomonlama qulayliklar taqdim etish uchun yangi kuch, imkoniyatlar kerak. Ammo hozirgi holatda viloyatdagi ziyo maskanlari yangi rejalar, qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida emas, qanday qilib o'z muammolarini bartaraf etish haqida bosh qotirayotgani ham bor gap. Misol uchun, vohadagi 16 ta kutubxonadan faqat 5 tasi o'z binosiga ega. Qolgan 11 tasi esa boshqa tashkilotlar balansidagi moslashmagan binolarda faoliyat yuritmoqda. Kutubxonalariga tegishli umumiy muammo shu – jihozlar yetishmasligi va eskirgani. Ayniqsa, ularning o'zgarishi, kompyuter vositalariga ehtiyoji katta, yangi adabiyotlar kam, shu sababdan ularga keluvchilar ham siyrak.

Jumladan, Qamashi tumani axborot-kutubxona markazi joylashgan bino avval litsey-maktab bo'lgan. Keyinchalik binoning birinchi qavatini tuman axborot-kutubxona markazi uchun berilgan.

– Kutubxonamizda jami 5 ming 300 dan ziyod noma 28 361 ta kitob mavjud, – deydi tuman AKM bo'lim boshlig'i Baxtiyor Xushshiyev. – Yangi badiiy asarlar, shuningdek, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi kitoblarga ehtiyojimiz bor.

Kutubxonada tadbirlar zali yo'q. Kompyuterlar yetishmaydi. Hatto skaner apparati bo'lmagan bois xodimlar skanerni tanishlaridan vaqtinchalik foydalanish uchun olib, bu yerdagi kitoblarning elektron nusxalarini yaratishmoqda.

Bunday holat nafaqat Qamashi, balki G'uzor, Nishon, Qarshi, Chiroqchi, Yakkabog' tuman axborot-kutubxona markazlari uchun ham begona emas.

Hududlarda aholi orasida mutolaa madaniyatini rivojlantirish, kitobxonlarning kitobga bo'lgan talabini qondirishda maktab kutubxonalari keng imkoniyatga ega. Boisi barcha hududdagi maktablarda kutubxona mavjud va aholi ham ulardan bemalol foydalanishi mumkin.

Biroq ayni paytda viloyatdagi aksariyat maktab kutubxonalarida ham shart-sharoit yetarli emas, kitoblar fondi deyarli yetarli emas, kitoblar fondi deyarli yetarli emas, kitoblar fondi deyarli yetarli emas. Masalan, so'nggi 4-5 yilda nashr etilgan badiiy adabiyotlar yo'q. Shuningdek, maktablarda kutubxonachilik ishiga nomzodning qiziqishi, kitobxonligi malaka talablariga qarab emas, balki darsi kam bo'lgan o'qituvchilarni o'tqazib qo'yish amaliyoti qo'llanilmoqda. Kitobga qiziqmagan kutubxonachidan nimani ham kutish mumkin?

O'rganishimiz chog'ida Yakkabog' tumanidagi 37-umumiy o'rta ta'lim maktabi kutubxonasi bilan tanishar ekanmiz, kutubxonachi ayolning mutaxassisligi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi ekaniga guvoh bo'ldik. U vaqtinchalik shu yerdagi ishlab turganini bildirdi. Suhbat davomida kutubxonachidan qaysi kitoblarni o'qigani haqida so'radik. Afsuski, birorta badiiy asar o'qimagan oshkor bo'ldi.

Yana bir misol. Qamashi tumani 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi kutubxonachisi hatto elektr toki o'tkazilmagan. Isitish, sovitish tizimlari haqida esa gap ham bo'lishi mumkin emas. Kutubxonadagi kitoblarning taxlanib turishi, stollar ustidagi changdan ma'lumki, bu yerga yaqin vaqtlarda hech kim, hatto kutubxonachining o'zi ham kirmagan aniq. Kutubxonachi buni inkor etmagan holda kutubxona uchun xona yo'qligi, shu sabab kitoblar vaqtinchalik shu joyga kiritib qo'yilganini aytdi. Endi o'yab ko'ring, kutubxonaga, kitobga munosabat shunday bo'lgach kitobxonlikni qanday rivojlantirish mumkin?!

Maqolani tayyorlash jarayonida ko'plab mutaxassislar, mas'ullar, kitobxonlar bilan uchrashib, ularning fikri bilan qiziqdik. Hozir yoshlar kitob o'qimay qo'ygani, kutubxonaning shart-sharoitini zo'r qilib, kitoblar fondini million nusxaga yetkazgani bilan u yerga kitobxon kelmasa, bu ishdan biror natija chiqmasligini ta'kidlaganlar ham bo'ldi.

Bugun kutubxonalar gavjum emasligi, kitobxonlar sifi siyraklashib borayotgani rost. Ammo vaziyat shunday ekan, deb qo'l qovushtirib o'tirish yaramaydi. Kitobxonlikni rivojlantirishga hukumat miqyosida katta ahamiyat qaratilayotgan, mas'ullar oldiga vazifalar qo'yilayotgan bir mahalda odamlarda kitobga munosabatni o'zgartirishni, kitobxonlar safini kengaytirishni, avvalo, zarur shart-sharoitlarni hozirlashdan boshlash kerak emasmi?!

Bu haqda mas'ullar jiddiy mushohada yuritadi, mavjud muammolarni bartaraf qiladi, degan umiddamiz.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

Toshkent viloyati "SHURAVI" baynalmilal jangchilar va nogironlar jamoat birlashmasi faoliyati tugatila-tganini ma'lum qiladi. Shu munosabat bilan kreditor va debitor qarzdorlik b'yicha murojaat etishingiz mumkin.

Salomatlik

Salomatlikning muhim omillaridan biri – to'g'ri ovqatlanish. Tib ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino ta'limotida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Ulug' allomaning asarlarida qayd etilishicha, tansihatlikning asosiy tadbiri – parhez.

Bugungi tibbiyotda bu boradagi milliy qadriyatlarimiz alohida e'tiborga olingani quvonarli. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan qabul qilingan sog'lom turmush tarzi tamoyilida ham ushbu jihat o'z ifodasini topgan. Bugun oziq-ovqatlar xilmaxilligi, ovqatlanishda me'yorni saqlash dunyoda keng targ'ib etilmoqda. Chunki hozirgi axborot texnologiyalari asrida insoniyat oldida bir qator global muammolar ko'ndalang bo'lmoqda. Yer yuzida aholining haddan tashqari semirib ketayotgani ana shunday muammolardan biri.

SAODATLI UMR KALITI

Ortiqcha vazn badavlatlik belgisimi?

Ba'zi oilalar to'g'ri ovqatlanish tushunchasini yuqori kaloriyalik taomlarni to'g'ri yeyish, deb tushunadi. Bu zararli odatdir, qolaversa, pala-partish ovqatlanish ko'plab xastalikka zamin bo'ladi.

Qiziq-da, bizda taomilga aylangan odat bor: har kuni uch mahal, mehmon kelib qolsa, 4-5 mahal ham ovqatlanamiz. Ba'zilar har doim nimanidir kavshanib yuradi – og'zi bo'sh turmasligi kerak. Ertalabki nonushta, albatta, kerak deymiz, tushlikni eson-omon tanovul qilib, kechqurun palovxontor'ani paqqos tushiramiz. Lekin bilmaymizki, ovqatning hazm bo'lishi organizmdagi murakkab jarayon hisoblanadi. Biz esa bir ovqat hazm bo'lmasdan, ikkinchisini ulab yuboramiz.

Bir paytlar boy-badavlat odamlargina to'g'ri ovqatlanish imkoniga ega bo'lgan. O'sha davrda semizlik yoki ortiqcha vazn – badavlatlik belgisi sanalgan. Aksariyat aholi qatlaminin mashhaqqatli mehnat ortidan topgan mablag'i esa qora qozon qaynatishgagina yetgan. Lekin dunyoda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoat miqyosida yo'lga qo'yilganidan so'ng ortiqcha vazn muammosi paydo bo'la boshladi.

Ma'lumotlarga ko'ra dunyoda oziq-ovqat mahsulotlariga qo'shiladigan sun'iy qo'shimchalar yildan-yilga ko'payib borayotgan bir sharoitda haddan tashqari semirib ketganlar, ortiqcha vazndan qutulolmayotganlar soni 3 milliardga yaqinlashib qoldi va bu ko'rsatkich o'sishda davom etmoqda. 2035-yilga borib ularning soni 4 milliardga yetishi mumkin.

Olamlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, semizlik ohlikdan ko'ra jiddiy muammodir. Ortiqcha vaznga ega bo'lish yoxud semizlikka chalinish aksariyat hollarda o'lim holatlarining ko'payishiga sabab bo'layotir.

Ko'pincha semiz odam surunkali kasalliklarga moyil bo'ladi. Ular jismoniy harakat qilishni yoqtirmaydi, ortiqcha yuk esa nafas olishni qiyinlashtiradi, yurak zo'rliqadi. Asosiy xavf odamning jigarida yog' hosil bo'lishi – u qanchalik ko'p bo'lsa, tomirlar tezroq qariydi va bu erta yurak xurujlari hamda insultga olib keladi.

35 yil davomida 195 ta mamlakat fuqarolarining turmush tarzini tahlil qilib kelgan olimlar shunday xulosaga kelishdiki, hozirgi kunda dunyodagi har 8 – 10 odamdan biri yog' bosish va semirish kasalligidan aziyat chekadi.

Darddan qutulish insonning o'ziga bog'liq

Tez semirish nafaqat G'arb davlatlarida, balki Yaqin Sharq, Lotin Amerikasi, Afrika mamlakatlarida ham kuzatilmoqda. Buning oqibatlari butun dunyo iqtisodiyotiga jiddiy zarba beryapti. Ya'ni semizlik natijasida kelib chiqqan xastalikdan xodimlar kasallik ta'limiga chiqishga majbur bo'lmoqda, faoliyatda pasayish, erta o'lim va boshqa holatlar kuzatilyapti.

Statistik ma'lumotlarga asosan, ortiqcha vazn yig'ishda minimal ustunlik ayollar tomonida. 2022-yilda dunyoda parhez saqlash va vazn yo'qotish uchun 250 milliard dollar sarflangan, yillik xarajatlar oshib bormoqda. 2035-yilga borib bu xarajatlar 4 trillon dollarga yetishi mumkin, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 3 foizini tashkil qiladi.

– Semizlikning o'z vaqtida oldini olish uchun birinchi navbatda jismoniy faollik, sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish me'yoriga diyoq qilish talab etiladi, – deydi diyetolog Dilobar Ibrohimova. – Ortiqcha semizlik har qanday yoshda kuzatiladigan

surunkali metabolik kasallik bo'lib, tana vazni, asosan, yog' to'qimalari hisobiga og'irlashadi. Hozir ortiqcha vazndan qutulish, chiroyli qomatni tiklash bo'yicha faoliyat olib borayotgan xususiy klinikalar ko'p. Ular mijozlarga sog'lom turmush tarzi me'yorlari, sport bilan shug'ullanish, to'g'ri ovqatlanish qoidalari bo'yicha tavsiyalar beradi, tegishli muolajalarni qo'llaydi. Lekin ba'zi insonlar oson va tez oziq uchun samarasi isbotlanmagan turli tabletkalar, evlogik faol qo'shimchalar qabul qilish evaziga o'z salomatligiga putur yetkazmoqda.

Ochig'i, semizlik haqida deyarli har kuni gapiriladi. So'nggi yillarda dunyo bo'yicha aholi o'rtasida ortiqcha vazn va semizlikdan qutulishni targ'ib qilish doirasida turli musobaqa va tadbirlar uyushtirib kelinmoqda.

Masalan, Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida "Sening vazning oltinga teng" nomli tadbir o'tkazilib, ishtirokchilarning har bir ozgan kilogrammi uchun bir grammdan oltin va'da qilindi. "Oltin evaziga oziq" tadbirida faol qatnashgan 2,6 mingdan ziyod

saqlash va kasalliklarning oldini olish bo'yicha o'ziga majburiyat oladi.

Bunda ortiqcha vaznga yo'l qo'ymaslik, to'g'ri ovqatlanishga amal qilish, jismoniy faolligni oshirish, zararli odatlardan voz kechish va ular natijasida infarkt, insult, qandli diabet, saraton kabi kasalliklarning oldini olish ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida belgilanadi. Ijoiy ko'rsatkichlarga erishgan tibbiyot xodimlari har chorakda mukofotlanadi, yil yakunida esa har bir viloyatda eng yaxshi natija ko'rsatgan poliklinikaga mukofot va sovg'alari beriladi.

O'z mahallasida sog'lom turmush tarzini tunu kun targ'ib qilgan, bu borada shaxsiy namuna bo'lgan tibbiyot xodimlari va jamoatchilik vakillari uchun alohida "Xalq salomatligi posboni" ko'krak nishoni ta'bis etildi.

"Aholi salomatligi – 2030" milliy strategiyasi

Xo'sh, aholining 56 foizini ortiqcha vazn, 30 foizini surunkali kasalliklar bezovta qilib kelayotgan

"Afsuski, to'g'ri ovqatlanmaslik va harakatsizlik oqibatida bugungi kunda aholimizning 75 foizida ortiqcha vazn borligi, 30 foizida esa xolesterin va qon bosimi yuqori ekani barchamizni o'yantirishi kerak."

ishtirokchilarga va'daga muvofiq, jami 17 kilogramm oltin ulashilgan.

Kasallikni davolagandan oldini olgan afzal

UNICEF va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi o'tkazgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ayollar va besh yoshgacha bo'lgan bolalarning oziqlanish ko'rsatkichlari ijoiy tomonga o'zgaragan. Shu bilan birga, 15 dan 49 yoshgacha doiradagi homilador bo'lmagan ayollarning 40 foizdan ortig'i ortiqcha vaznga ega yoki semizlikka moyil hisoblanadi. Yoshi kattalashgan sayin ayollarning semirib borayotgani sog'liqni saqlash sohasidagi jiddiy muammolardan biri, deb qaralmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2022-yildagi tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqotida inson salomatligining 19 foizi tashqi muhitga, 20 foizi genetik omillarga, 9 foizi sog'liqni saqlashni tashkil etish va 52 foizi turmush tarziga bog'liqligi haqidagi JSS'ning ma'lumotlari keltirildi.

Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanadigan odam hech qanday davoga muhtoj bo'lmaydi. Uchrashuvda sog'lom turmush darajasini oshirish orqali kasallikning oldini olishga ko'proq e'tibor berish lozimligiga, aholining to'g'ri ovqatlanish va sport bilan muntazam shug'ullanishida shifokor shaxsiy javobgar ekaniga alohida urg'u berildi. "Afsuski, to'g'ri ovqatlanmaslik va harakatsizlik oqibatida bugungi kunda aholimizning 75 foizida ortiqcha vazn borligi, 30 foizida esa xolesterin va qon bosimi yuqori ekani barchamizni o'yantirishi kerak", dedi Prezidentimiz.

Shuning uchun 17 mingdan ziyod tibbiy brigadalar, 2 mingdan ortiq oliyaviy shifokor punktlari va poliklinikalarning ish samaradorligini baholash bo'yicha reyting tizimi joriy qilindi. Endilikda tibbiyot xodimlari o'z hududida aholi sog'lig'ini

ekan, bu omillarning mamlakatimiz taraqqiyotiga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishga qanday salbiy ta'sirlari bor?

Birinchi, ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi keskin pasayishi kuzatiladi. Ikkinchidan, tashabbuskorlik, yangi g'oyalarni ilgari surish, shu orqali ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishda uzilishlar sodir bo'ladi. Uchinchi, agar bu xavfning oldini olish bo'yicha o'z vaqtida keskin chora-tadbirlar ko'rilmasa, taraqqiyotdan ortda qolishimiz mumkin.

Shu bois so'nggi yillarda sog'lom turmush tarziga oid normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, qator chora-tadbirlar amalga oshirilmog'da. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 6-sentabrdagi "Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan vazirlik tomonidan xalqaro tashkilotlar va xorijiy konsalting kompaniyalari jalb qilingan holda ilg'or xorijiy tajribalar asosida "Aholi salomatligi – 2030" milliy strategiyasi ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, farmatsevtika tarmog'ini samarali tartibga solish, sog'liqni saqlash tizimini to'liq raqamlashtirish,

Aslida, jannatmonand yurtimizda to'g'ri ovqatlanish uchun barcha sharoit muhayyo. Ona zaminimizda yilning to'rt faslida ham yuzlab tabiat noz-ne'matlari yetishtiriladi. Hatto qish faslida ham bozorlarimizdan sarxil meva-sabzavotlar, ko'katlar uzilmaydi. O'zbek pazardachiligi esa taomlarga boyligi va xilmaxilligi bilan ajralib turadi. Bizning vazifamiz ularidan yoshimiz, kasbimiz, yil fasllari, sog'lig'imiz holatidan kelib chiqib, oqilona tanovul qilishdir.

Hayotning naqadar go'zal va mazmunli o'tishi insonning sog'lig'i bilan bog'liq. Kishi sog'lom bo'lsa, ko'zlagan barcha orzu-niyati sari intiladi, ularni amalga oshiruvchi kuch-quvvatga ega bo'ladi. Demak, sihat-salomatlik – saodatli umr kaliti.

Nurulloh OSTONOV
("Xalq so'zi").

Yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan dzyudo, og'ir atletika hamda boks federatsiyalari mezonlarni doimiy ravishda

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-742. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksal olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 23.25 Topshirildi – 00.40 1 2 3 4 5 6